

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 6



@QMI_Institut



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
6-son
noyabr, 2025

November 2025
Volume 3
Number 6

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

*Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda
jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.*

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

"Innovatsion iqtisodiyot" ilmiy - amaliy
O'zbekiston elektron jurnali ta'lim, fan va
innovatsiyalar Respublikasi Oliy vazirligi
huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi**
rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli
qarori bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

**Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar
nashr etiladi:**

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

*Ovchinikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal
Universitet, Rossiya)*

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

*Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog'iston Respublikasi
Milliy fanlar akademiyasi)*

*Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston
agrar universiteti)*

*Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva
energetika instituti, Rossiya)*

*Voynash Sergey Aleksandrovich - i.f.n. dotsent (Qozon Volga bo'yi (federal)
universiteti)*

*Pulyayeva Valentina Nikolayevna - i.f.d. professor (Rossiya Federatsiyasi hukumati
qoshidagi moliya universiteti)*

*Morkovkin Dmitriy Yevgeniyevich - i.f.d. professor (Rossiya Federatsiyasi hukumati
qoshidagi moliya universiteti)*

*Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi
Milliy fanlar Akademiyasi)*

*Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati
huzuridagi Moliya universiteti)*

*Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat
universiteti)*

*Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati
huzuridagi Moliya universiteti)*

*Chupin Aleksandr Leonidovich - i.f.d., professor, (P.Lumumba nomidagi Rossiya
xalqlar do'stligi universiteti)*

*Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar
universiteti)*

*Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati
huzuridagi Moliya universiteti)*

*Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati
huzuridagi Moliya universiteti)*

*Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazarot
fanlari instituti)*

*Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot
universiteti)*

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich - t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d. dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

O'zbekistonda ishlab chiqarish korxonalarini kreditlashning metodologik asoslarini takomillashtirish

Xasanov Shamsiddin Xafizovich

Совершенствование методологических основ кредитования производственных предприятий в Узбекистане

Хасанов Шамсиддин Хафизович

Improving the methodological foundations of lending to manufacturing enterprises in Uzbekistan

Khasanov Shamsiddin Khafizovich

Received: November 2, 2025 Revised: November 5, 2025

■ Accepted: November 8, 2025 ■ Published Online: December 1, 2025

- **Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda ishlab chiqarish korxonalarini kreditlash tizimini takomillashtirishning ilmiy va metodologik asoslari chuqur tahlil qilinadi. Kreditlash jarayonining iqtisodiy mohiyati, uning ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirishdagi roli hamda moliyaviy barqarorlikka ta'siri yoritilgan. Maqolada amaldagi kredit siyosati, foiz stavkalari, garov mexanizmlari va kredit resurslaridan foydalanish samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, tijorat banklarining ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan o'zaro hamkorlik modeli taklif etilgan. Muallif ishlab chiqarish tarmoqlarining xususiyatlarini hisobga olgan holda differensial kreditlash yondashuvini ishlab chiqqan. Ilmiy natijalarga ko'ra, kredit resurslarini maqsadli yo'naltirish va monitoring mexanizmini kuchaytirish iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan metodik takliflar orqali kredit risklarini kamaytirish va investitsion muhitni yaxshilash imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Maqola natijalari ishlab chiqarish korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.
- **Kalit so'zlar:** Kreditlash tizimi, ishlab chiqarish korxonalari, moliyaviy barqarorlik, tijorat banklari, foiz siyosati, kredit riski, investitsion muhit, differensial yondashuv, kredit resurslari, monitoring mexanizmi.
- **Аннотация:** В данной статье всесторонне анализируются научные и методологические основы совершенствования системы кредитования производственных предприятий в Узбекистане. Раскрыта экономическая сущность кредитного процесса, его роль в расширении производственного потенциала и влиянии на финансовую устойчивость. Проведен анализ действующей кредитной политики, процентных ставок, механизмов залога и эффективности использования кредитных ресурсов. Предложена модель сотрудничества коммерческих банков с производственными предприятиями. Автор разработал

дифференцированный подход к кредитованию с учетом особенностей отраслей производства. Результаты исследования показывают, что целевое распределение кредитных ресурсов и усиление механизмов мониторинга оказывают положительное влияние на экономический рост. На основе международного опыта предложены методические рекомендации по снижению кредитных рисков и улучшению инвестиционного климата. Выводы и предложения автора направлены на дальнейшее совершенствование системы финансовой поддержки производственных предприятий.

- **Ключевые слова:** Система кредитования, производственные предприятия, финансовая устойчивость, коммерческие банки, процентная политика, кредитный риск, инвестиционный климат, дифференцированный подход, кредитные ресурсы, механизм мониторинга.
- **Abstract:** This article provides a comprehensive analysis of the scientific and methodological foundations for improving the lending system of manufacturing enterprises in Uzbekistan. The economic essence of the lending process, its role in expanding production capacity, and its impact on financial stability are highlighted. The paper examines the current credit policy, interest rates, collateral mechanisms, and the efficiency of using credit resources. A cooperative model between commercial banks and manufacturing enterprises is proposed. The author has developed a differentiated approach to lending, taking into account the specific characteristics of industrial sectors. The research findings indicate that targeted allocation of credit resources and the strengthening of monitoring mechanisms have a positive impact on economic growth. Based on international experience, methodological recommendations for reducing credit risks and improving the investment environment are proposed. The results of this study serve to further enhance the financial support system for manufacturing enterprises.
- **Keywords:** Lending system, manufacturing enterprises, financial stability, commercial banks, interest policy, credit risk, investment environment, differentiated approach, credit resources, monitoring mechanism.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda kreditlash tizimi muhim o'rin tutadi. Chunki kredit resurslari ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, texnologik yangilanishni jadallashtirish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishning asosiy manbalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining so'nggi yillardagi iqtisodiy islohotlarga qaratilgan siyosati natijasida moliyaviy institutlarning roli yanada ortib bormoqda. Jumladan, bank tizimi faoliyatini modernizatsiya qilish, kreditlash mexanizmlarini soddalashtirish va shaffofligini ta'minlash bo'yicha qator huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 23-noyabrdagi №704-son "Bank tizimi faoliyatini yanada takomillashtirish va kreditlash jarayonlarini optimallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ushbu yo'nalishda muhim normativ asos bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur qaror kredit siyosatini isloh qilish, tadbirkorlik subyektlarini, ayniqsa ishlab chiqarish korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning yangi mexanizmlarini joriy etishni ko'zda tutadi.[1]

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sohasidagi korxonalarni kreditlashda mavjud muammolar – garov ta'minotining yetishmasligi, foiz stavkalarining yuqoriligi, kredit olish tartibining murakkabligi – iqtisodiy faollikka salbiy ta'sir

ko'rsatmoqda. Ushbu holat ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun moliyaviy manbalarni samarali jalb etish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Shu sababli, ishlab chiqarish korxonalarini kreditlashning metodologik asoslarini takomillashtirish, kredit siyosatini ilmiy asosda optimallashtirish va xalqaro tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Mazkur tadqiqot ana shu muammolarga yechim topishga qaratilgan bo'lib, ishlab chiqarish tarmoqlarining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kreditlashning o'ziga xos xususiyatlarini ko'plab xorijlik olimlar, jumladan: I.Ansoff, P.Rouz, O.I.Lavrushin, V.Acharyya, S.V.Simonseva, A.M.Lyukshinov, M.A.Pomorina, R.Akoff, G.Minsbergi, YE.G.Shatkovskaya, I.V.Larionova, Z.M.Anisimova, N.A.Tisyachnikova, O.Y.Sviridov, A.R.Alaverdov va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan. Bank strategiyasining ayrim jihatlariga O'zbekistonlik olimlardan F.I.Mirzayev, D.N.Rahimova, N.Q.Yo'ldoshev, B.B.Parpiyev, R.R.Tojiyev, F.N.Nasriddinov, B.Z.Mustafayev, B.K.Mirzamaydinov, D.B.Nafasov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida e'tibor qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini iqtisodiy tahlil, tizimli yondashuv, ilmiy abstraksiya va qiyosiy tahlil usullari tashkil etadi. Ishlab chiqarish korxonalarini kreditlash jarayonlarini o'rganishda induksiya va deduksiya, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish hamda empirik kuzatish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari va Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari tahliliy asos sifatida jalb qilindi.

Tadqiqotda xorijiy mamlakatlar – Janubiy Koreya, Germaniya va Turkiya tajribalari o'rganilib, ularning amaliy yondashuvlari O'zbekiston sharoitiga moslashtirildi. Kreditlash tizimining samaradorligini baholashda iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik aniqlash metodidan foydalanildi.[2] Natijalar asosida ishlab chiqarish korxonalarini kreditlashni takomillashtirishga doir ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi. Ushbu yondashuv iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda Osiyo va G'arb mamlakatlarida ishlab chiqarish korxonalarini kreditlash tizimi iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida shakllandi. Jumladan, Janubiy Koreyada 2020–2024-yillar davomida sanoat subyektlariga berilgan kredit hajmi 38 foizga o'sdi. Bu jarayon davlat kafolatlari, past foizli kredit liniyalari va texnologik yangilanish dasturlari bilan chambarchas bog'liq.[3]

Germaniya tajribasida ishlab chiqarish korxonalariga yo'naltirilgan kreditlar hajmi yalpi ichki mahsulotning o'rtacha

17 foizini tashkil etgan. U yerda kreditlashning barqaror tizimi "KfW Development Bank" orqali amalga oshirilib, uzoq muddatli investitsion loyihalarga yo'naltiriladi. AQShda esa 2020–2024-yillarda sanoat kreditlari hajmi 2,3 barobarga oshgan bo'lib, bu davlat-xususiy hamkorlik mexanizmlari bilan izohlanadi.[4]

Osiyo mintaqasida, xususan, Xitoy va Janubiy Koreya iqtisodiyotida ishlab chiqarish kreditlari tarkibida innovatsion texnologiyalarni moliyalashtirish ulushi 40 foizdan oshgan. G'arb mamlakatlarida esa bu ko'rsatkich 32 foizni tashkil etgan.

O'zbekistonda esa 2020–2024-yillarda ishlab chiqarish korxonalariga berilgan kredit hajmi yiliga o'rtacha 18 foizga o'sdi. Biroq foiz stavkalarining yuqoriligi va garov ta'minotining yetishmasligi korxonalar faolligiga ma'lum darajada to'sqinlik qilmoqda. Shunga qaramay, "Har bir oila — tadbirkor" va "Ishlab chiqarishga moliyaviy ko'mak" dasturlari kreditlash hajmining barqaror o'sishini ta'minladi. [5]

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2020–2024-yillar davomida barcha mamlakatlarda ishlab chiqarish sektorini kreditlash hajmi sezilarli o'sish tendensiyasini namoyon etgan. O'zbekistonda kredit hajmi 6,2 mlrd. dollardan 10,3 mlrd. dollargacha oshib, 66,1 foiz o'sish qayd etilgan. Bu natija davlat dasturlari va tijorat banklari faoliyatining faollashuvi bilan izohlanadi.

Janubiy Koreyada o'sish sur'ati 38 foizni tashkil etib, bu uzoq muddatli past foizli kredit liniyalari samaradorligini ko'rsatadi. Germaniyada nisbatan past (17,1%) o'sish kuzatilgan, biroq kreditlash barqarorligi yuqori. AQShda esa 129 foizlik keskin o'sish qayd etilib, bu ishlab chiqarishni kreditlashda innovatsion va xususiy sektor rolini kuchaytirganidan dalolat beradi.[6]

1-jadval


2020–2024-yillarda ishlab chiqarish korxonalarini kreditlash hajmining solishtirma tahlili (mlrd. AQSh dollari hisobida)

MAMLAKAT	2020-YIL	2022-YIL	2024-YIL	O'SISH (%)
O'zbekiston	6.2	8.1	10.3	66.1
Janubiy Koreya	45.5	55.6	62.8	38.0
Germaniya	120.4	134.7	141.0	17.1
AQSh	310.2	480.3	710.5	129.0

O'zbekiston ko'rsatkichlari hajm jihatdan kichik bo'lsa-da, o'sish sur'atlari bo'yicha rivojlangan mamlakatlarga

yaqinlashmoqda. Bu esa milliy kredit siyosatining bosqichma-bosqich isloh qilinayotganini tasdiqlaydi.

1-chizma. 2020–2024-yillarda ishlab chiqarish korxonalariga berilgan kreditlar dinamikas



1-chizma. 2020–2024-yillarda ishlab chiqarish korxonalariga berilgan kreditlar dinamikasi (foizlarda)

1-chizmada 2020–2024-yillar oralig'ida ishlab chiqarish korxonalariga berilgan kreditlar dinamikasi mamlakatlar kesimida tasvirlangan. Eng yuqori o'sish sur'ati AQShda kuzatilib, 129 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu xususiy sektorning kreditlashdagi faol ishtirokini ko'rsatadi. Janubiy Koreyada o'sish 38 foiz bo'lib, davlat kafolatlari va innovatsion loyihalarga berilayotgan imtiyozli kreditlar bunga asos bo'lgan. Germaniyada esa kreditlash barqaror, ammo ehtiyotkor siyosat tufayli o'sish 17 foizda qolgan.

O'zbekistonda ishlab chiqarish korxonalarini kreditlash hajmi 66 foizga oshgan bo'lib, bu davlat dasturlarining samarali amalga oshirilayotganini tasdiqlaydi. Chizma O'zbekistonning Osiyo mamlakatlariga yaqinlashayotganini, ammo G'arb darajasiga chiqish uchun uzoq muddatli va innovatsion yo'naltirilgan kredit liniyalarini kengaytirish zarurligini ko'rsatadi. O'zbekiston, Janubiy Koreya, Germaniya va AQSh mamlakatlarida 2020–2024-yillar oralig'ida ishlab chiqarish korxonalariga berilgan kreditlar o'sish sur'atlari rangli ustunli diagramma orqali tasvirlangan. Diagrammadan ko'rinib turibdiki, AQShda kreditlash hajmi eng yuqori – 129 foiz, O'zbekistonda 66 foiz, Janubiy Koreyada 38 foiz, Germaniyada esa 17 foizni tashkil etgan. Bu natijalar kredit siyosatining faollashuvi va davlat moliyaviy dasturlarining samaradorligini ko'rsatadi.[7]

Yuqoridagi jadval va chizma tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston kreditlash hajmining o'sish sur'atlari bo'yicha Osiyo mamlakatlari darajasiga yaqinlashgan. Ammo kredit resurslarining tarkibi va foiz siyosatidagi nomutanosibliklar ishlab chiqarish samaradorligiga to'liq ijobiy ta'sir

ko'rsatmayapti. Shu sababli, xalqaro tajriba asosida uzoq muddatli, past foizli va maqsadli kredit liniyalarini joriy etish tavsiya etiladi. Natijada ishlab chiqarish korxonalarining texnologik yangilanishi va raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshadi.[8]

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda ishlab chiqarish korxonalarini kreditlash hajmi 2020–2024-yillarda sezilarli darajada oshgan bo'lsa-da, kredit resurslarining tuzilmasi va shartlari ishlab chiqarishning texnologik yangilanishiniloqliqqo'llab-quvvatlayolmayapti. Kreditlarning asosiy qismi qisqa muddatli bo'lib, bu korxonalarning uzoq muddatli investitsion faoliyatini cheklaydi.[9]

Osiyo mamlakatlari, xususan Janubiy Koreya tajribasidan kelib chiqib, O'zbekistonda ham past foizli, kafolatli va innovatsion loyihalarga yo'naltirilgan kredit liniyalarini kengaytirish zarur. Germaniya va AQSh amaliyotida qo'llaniladigan risklarni baholash, reyting tizimi va davlat-xususiy hamkorlik mexanizmlarini milliy tizimga tatbiq etish samaradorlikni oshiradi.[10]

Kreditlash mexanizmlarini soddalashtirish, garov siyosatini qayta ko'rib chiqish va ishlab chiqarish subyektlari uchun moliyaviy ko'mak dasturlarini kengaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, banklar faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etish, kredit risklarini onlayn monitoring qilish tizimini yo'lga qo'yish kredit intizomini

kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqarish korxonalarini kreditlashning metodologik asoslarini takomillashtirish iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, raqobatbardosh sanoatni rivojlantirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Xasanov Shamsiddin Xafizovich Axborot texnologiyalari va menejment universiteti katta o'qituvchisi / Хасанов Шамсиддин Хафизович старший преподаватель Университета информационных технологий и менеджмента / Khasanov Shamsiddin Khafizovich Senior Lecturer, University of Information Technologies and Management
 ► xasanovshamsiddin@gmail.com
 ■ 0009-0001-6205-7841

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Qonuni. — Toshkent, 2022-yil, №3PY-754.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori. "Bank tizimi faoliyatini yanada takomillashtirish

va kreditlash jarayonlarini optimallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" — 2021-yil 23-noyabr, №704-son.

3. Abduqodirov A.A., Isroilov B.S. "Bank ishi va kreditlash asoslari". — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020. — 356 b.
4. Jo'rayev U.M., Ergashev S.M. "Korxona iqtisodiyoti". — Toshkent: TDIU nashriyoti, 2019. — 412 b.
5. Mishkin F.S. The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. — New York: Pearson, 2021. — 768 p.
6. Krugman P., Obstfeld M. International Economics: Theory and Policy. — Boston: Pearson Education, 2020. — 640 p.
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari. "Tijorat banklarining kredit portfeli dinamikasi (2020–2024-yillar)" — Toshkent, 2025.
8. Davlat statistika qo'mitasi. "Sanoat korxonalari faoliyati va moliyaviy ko'rsatkichlar to'plami". — Toshkent, 2024.
9. <https://www.cbu.uz> — O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti (2020–2024-yillar hisobotlari).
10. <https://stat.uz>, <https://worldbank.org>, <https://imf.org> — xalqaro moliyaviy institutlarning ishlab chiqarish kreditlari bo'yicha statistik ma'lumotlari.